

30-AVGUST, 2024-YIL

TAYYORLOV GURUHDAGI BOLALARNI ATROF MUHITGA MUNOSABATINI
SHAKILLANTIRISH METODIKASINI TAKMILLASHTIRISH

Sirojiddinova Nilufar Qodirali qizi

Guliston davlat universiteti doktoranti

E-mail: nilufar1994@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13251050>

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini borliq va tabiatni sevishga o'rgatish. Bolalarda atrof muhitga munosabatni o'rgatish nima uchun va nimani o'rgatish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlaridan foydalanilgan. Tabiat o'zi nima ekanligi uni nima uchun asrab avaylash to'grisida yoritilib o'tilgan. 6-7 yoshli bolalarga mehnat tarbiyasi orqali atrof muhitga munosabati shakllantirilishi hamda tabiatda bor ne'matlar jonli va jonsiz tabiatni asrab avaylash va tejamkorlik to'g'risida tushunchalar berilgan.

Kalit sozlar: bolalar, pedagogik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, inovatsion muhit tabiat, ekologik qadriyat, ekologik bilim, tabiatga muhabbat, inson, rol, Texnologiya.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMING THE ATTITUDE OF CHILDREN
IN THE PREPARATORY GROUP TO THE ENVIRONMENT

Abstract. To teach preschoolers to love existence and nature. Information is given on why and what to teach children about the attitude to the environment. In order to implement these tasks, educational programs were used to develop the thinking of preschool children in accordance with state requirements, and to form their independent thinking. What nature is and why it should be preserved has been explained. 6-7-year-old children are given concepts about the formation of their attitude to the environment through labor education, and the preservation of natural gifts, animate and inanimate nature, and economy.

Key words: children, pedagogy, preschool educational organization, innovative environment, nature, ecological value, ecological knowledge, love of nature, human, role, Technology.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЯ
ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ОКРУЖАЮЩЕМУ СРЕДЕ

Аннотация. Обучение дошкольников любви к существованию и природе. Дается информация, зачем и чему учить детей отношению к окружающей среде. Для реализации этих задач использовались образовательные программы, развивающие мышление

30-AVGUST, 2024-YIL

дошкольников в соответствии с государственными требованиями, формирующие их самостоятельное мышление. Объяснено, что такое природа и почему ее нужно беречь. Детям 6-7 лет даются представления о формировании их отношения к окружающей среде через трудовое воспитание, сохранение природных дарований, живой и неживой природы, хозяйства.

Ключевые слова: *дети, педагогика, дошкольная образовательная организация, инновационная среда, природа, экологическая ценность, экологические знания, любовь к природе, человек, роль, технология.*

Kirish. Atrof muhitga bo'lgan oqilona munosabat maktabgacha tayyorlav yoshdagi bolalarda asosiy tarbiya yo'nalishi hisoblanib, bu yo'nalish bolalarni tabiat bilan tanishtirishning an'anaviy usulidan farq qiladi. Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalar jonli tabiat obyektlari bilan o'zaro jonli munosabata bo'lish, ularni xis qilish yashab turgan muhitga adaptasiya qilish va hayot kechirish tarzini o'zlashtirishi lozim. Bunda pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalaridan biri bolalarda atrof muhitga, tabiatga nisbatan madaniyatni shakllashtirishi lozim.

1. Maktabgacha ta'lim tayyorlov guruhlarida atrof muhitga munosabat jarayonida jarayonida olimlarining tabiat va jamiyatdagi o'zaro bog'liqliklari to'g'risidagi fikirlari o'rganilgan xolda ta'limiy faoliyatlar olib borish kerak. Hozirgi kunda inson va tabiatning o'zaro munosabatlar harakteri yer sharida hayotni saqlab qolish bilan bog'liqdir. Ushbu muammolarning dolzarbligi, ilk ekologik va biologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning tez sur'atlar bilan o'sib borishi va nihoyat, tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ilk ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi.

Olimlar tabiat, jamiyat va insoniyatni bir-biriga ta'sirining o'ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi bosqichlarga o'tishni ta'minlash kerak degan xulosaga keldilar, atrof muhitga bo'lgan munosabatda muammolarni dolzarbligini hisobga olgan holda, tabiatdan oqilona foydalanish, g'amxo'rlik qilish, uni ifloslantirmasdan, noz ne'matlaridan tejamkorlik bilan foydalanib jonli va jonsiz tabiatga bo'lgan munosabatni bolani ilk yoshidan shakllantirishga katta ahamiyatga berish, maktabgacha yoshdagi bolada ma'naviy, axloqiy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy tabiatga bo'lgan tarbiyaning poydevori asosi shakllanadi. Bolalarning atrof muhitga bo'lgan tarbiyasi maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Bolaning shaxs sifatida atrof muhitga tarbiyasini shakllantirish, tabiatni asrab avaylash munosabatlariga ijobiy yondoshish, tabiat bilan bog'lik bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda atrof

30-AVGUST, 2024-YIL

muhit muhofazasiga bo'lgan intizom, tabiatga muhabbatning yuzaga kelishi bilan harakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy gigiyenaga rioya qilishi, ekologik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib bunda bolajonlar tabiiy boyliklarimizni tugab qolishi ular abadiy emasligini tushingan holda ularni tejab ishlatish, behudaga isrof qilmaslik, oqova suvlarga axlat tashlamaslik kabi tabiatni bilish bo'yicha bilim ko'nikmalarini egallashi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatda bola shaxsini atrof muhitga munosabatini tarbiyalashga tayyorlash, quyidagi faoliyat turlari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

6-7 yoshli bolalarni mehnat tarbiyasi orqali atrof muhitga munosabati shakilllantiriladi. Bunda bolalar tarbiyachi bilan birgalikda xonada tabiat burchagida o'z faoliyatlarini olib boradilar yani o'simliklarga nima ozuqa kerak (quyosh nuri, suv, o'g'it va albatta toza havo) shunda bola tirik organizimlarning ehtiyojini hisobga olgan holda o'simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo'lgan sharoitlarni tashkil qilishni o'rganadilar. Bunda bolalar tabiatga, o'simlik va hayvonlarga salbiy munosabatda bo'lmaslik, tirik organizimlarning butunligini saqlash muhumligini angelaydi.

2. Insoning atrof muhitga nisbatan munosabatni tarbiyalash. Atrof muhitga nisbatan aqliy, axloqiy, estetik munosabatlar, bola tabiatdagi o'zgarishlarni o'zlashtirayotgan tasavvurlarining mazmuni bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi lozim. 6-7-yoshli bolalarda ekologik tarbiya mazmun bilan bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyati tabiatda bolalar o'zini tuta bila olishi, intizomini hosil qiladi va maqsad sari yo'naltiradi. Tabiatga bo'lgan munosabat ko'nikmalarini takomillashtirishda bolalar ongiga yetib boruvchi tabiat qonunlari bo'yicha bilim alohida o'rin egallaydi. Atrof muhitga nisbatan bo'lgan munosabatni rivojlantirish, ekskursiya, sayr, uy hayvonlarini parvarish qilish, qushlarga g'amxo'rlik qilish orqali bolalarning ma'naviy- ijobiy, ruhiy holatlariga asoslangan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish bilan yaqindan bog'liq. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida ona tabiatning jonli-jonsiz vakillariga g'amxo'rlik qilish, pravarish qilish, asrab-avaylash, jonli tabiat bilan tanishganda undan baxra olish, quvonish, o'zining qilgan ishidan mag'rurlanish, qoniqish hissini uyg'ota bilish maqsadga muofiq bo'ladi. 6-7- yoshli bolalarga tabiat bilan muloqotda bo'lganda o'zi tengdoshlari va kattalar qilgan ishlarni baholashni o'rgatish ham ahamiyatli.

3. Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalar atrof muhitga munosabatining mazmuni, metodik, uslubiy qo'llanmalar ekologiya bo'yicha tavsianomalar ishlab chiqarish jarayonida, aniq faktlar orqali ko'rishlari uchun bolalarning psixologik va fiziologok xolati, yosh xususiyatlarini inobatga olish kerak bo'ladi. 6-7-yoshli bolada atrof muhitga munosabatini

30-AVGUST, 2024-YIL

shakllantirish muammolarini samarali hal etish faqat uzluksiz tabiatga munosabatini yaxshilab amalga oshirish orqali, oilada ilk yoshidan, maktabgacha ta'lim tashkiloti mahalla hamkorligida amalga oshiriladi. Maktabgacha tayyorlov yoshda bolada tabiatga bo'lgan munosabatining asosiy axloqiy tamoyillari shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida atrof muhitga ongli munosabatini rivojlantirish bilan birgalikda o'zaro hamkorlikning boshlang'ich amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, shuningdek, tarbiyachilar maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarni tarbiyalash ularning uzviy atrof muhit bilan munosabatini rivojlantirish ham muhimdir. Maktabgacha ta'lim bosqichida atrof muhitga bo'lgan munosabat bolani shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynashiga asoslanadi, 6-7 yoshda bolalarning tabiat bilan aloqalariga alohida e'tibor beriladi, ijtimoiy moslashuvda, jumladan, ularda xissiy sezish, qiziqish uyg'ota boshlaydi, o'rganilgan muammo sohasida MTT tajribasini tahlil qilindi. Tahlildan asosiy maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhitga muhabbatli munosabatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning eng samarali usullarini izlashdan iborat.

6-7-yoshli bolalarni atrof muhitga munosabatini tarbiyalash uchun ijobiy asos ularning tevarak-atrofdagi voqelikka bo'lgan qiziqishi, harakat faolligi, tabiat bilan muloqotga intilishi, emosionallikning ortishidir.

Malaka oshirish kursiga kelgan pedagoglarning (tarbiyachi) ish tajribasi tahlili atrof muhitga munosabatining optimal yo'llarini qidirish doimo pedagoglar tomonidan olib boriladi, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Shu bilan birga, turli usul va metodlardan, ta'lim-tarbiyaviy ishlar shakllarining turli ko'rgazmali vositalar, hamda o'z hududidagi tabiat obyektlari (bog'lar, dalalar, xayvonot bog'lari, madaniy va ma'naviy ta'lim beruvchi maskanlar) ga jalb qilish bilan uyg'unlashuvdan foydalanildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 98 nafar pedagoglarnidan olingan so'rov natijalari pedagoglarning bolalarni atrof muhitga munosabatini tarbiyalash vazifalarini samarali amalga oshirishga bo'lgan metodik tayyorligini zaifligini ko'rsatmoqda. So'rovnomada qatnashgan deyarli barcha pedagoglar bolalarni asosan bolalar adabiyotidan, judayam kamchiligi maxsus atrof muhit yoki tabiatshunoslik adabiyotlardan foydalanishini, tabiatda bo'layotgan o'zgarishlarni faktlar va misollar bilan tanishtirishlarini aytishdi. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasiga oid matnlarni qayta ko'rib chiqish, bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi hamda ekologiyaga oid tushunchalarining sayozligi qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ta'kidladilar. Shu bilan birga pedagoglarning ko'pchiligi atrof muhitga munosabatini bog'cha maydonchasida va undan tashqarida, yovvoyi tabiat burchagida, o'yinlar va sayr vaqtida amalga oshiradilar.

30-AVGUST, 2024-YIL

Pedagoglar ko'pincha bolalarning tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatini ular tomonidan aytib bera olgan ma'lumotlaridan, juda kam qismi esa hatti-harakatlari va amaliy harakatlariga asoslanib baholaydilar.

“Maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturida nazarda tutilgan qaysi asosiy “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasi” o'quv uslubiy majmuadan foydalanib tabiat haqidagi tushunchalar bilan bolalarini tanishtirasiz?” degan savolga, tinglovchilarning 70 foizdan ortig'i aniq javob bera olmadilar, 23 foizdan ortig'i yovvoyi va uy hayvonlari, madaniy va yovvoyi o'simliklar haqida ba'zi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni, 20 foizdan ortig'i inson hayotida hayvonlar va o'simliklar ahamiyatini, 27 foizi tabiatni muhofaza qilish haqida gapirishlarini aytib o'tdilar, atiga 15 foiz tarbiyachi maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarini sayr, ekskursiya va tabiat qo'yniga sayohat orqali bolalarga tabiat, atrof muhitga bo'lgan munosabat to'g'risida tushuncha berishini aytib o'tdi.

Odamlarning tabiatdagi o'rni (20,3%), atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri (50,0%), jonli va jonsiz tabiatning go'zalligi va estetik qimmati (10,2%) kabi javoblar olindi. Yuqoridagi savollarga javoblar shundan dalolat beradiki, pedagoglar bolani axloqiy (atrof muhitga munosabati emas) tarbiyalash maqsadida tabiiy muhit vositalaridan keng foydalansalar ham atrof muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda estetik jihatiga e'tibor juda kam qaratilyapti.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti amaliyotida tabiat haqida ta'lim berishda bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib quydagilarni ko'rishimiz mumkin, atrof muhit haqida tarbiyaga oid ta'limiy faoliyat mazmuni aniq belgilanmagan, ta'lim va tarbiya metod va shakllari majmuasi to'liq amalga oshirilmagan, bundan ko'rinib turibdiki maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarni innovatsion ta'lim sharoitida atrof muhitga munosabatini tarbiyalashni amalga oshirishda tarbiyachilarning pedagogik jarayonga yetarli darajada tayyor emasligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarining “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. -T., -2018.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. -T., -2018.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. -T.: “Ma'naviyat”. 2013. 679 b.
4. Djumayev M.I. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - T., Ilm ziyo. 2005. - 7 b.

30-AVGUST, 2024-YIL

5. Nig'matov A.N. Ekologiya Asosiy atama va iboralarning izoxli lug'ati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.
6. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.
7. To'xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.
8. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1991.
9. M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH